

YOSHLAR VA ILM

Onorboyeva Madina Abduqaxxor qizi

Buxoro Xalqaro Unversiteti 1-bosqich talabasi

E-mail: Madinaonorboeva76.@meal.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi glaballashuv davrida noan'anaviy usullar bilan kreativ fikirlash va tahlil qilishga o'rgatish, ularni ilm-fan, inavatsiyallarga qiziqtrish usullari yoritilgan bo'lib bu borada mamlakatimizda shidatli islohatlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek yoshlar ilm-fan innovatsiyallarga oid qabul qilingan bir qator normativ huquqiy hujatlar aks etirilgan. Yoshlar uchun amalaga oshrayotgan islohatlar maqsadi bu biz yoshlar kerakli bilim olish uchundir.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, ilm, taraqiyot, kreativ, normativ, innovation, buyuk.*

KIRISH

Ulug' mutafakkirlar, olimu fuzalolar, aziz-avliyolar vatani bo'lmish O'zbekistonimizda keyingi vaqtlarda xalqimizning ezgulikka yo'g'rilgan an'analari urf-odatlarini qayta tiklash hamda rivojlantirish, muqaddas qadamjolar va obidalarini obodonlashtirish, yosh avlod va harbiy kadrlarni boy tariximizga hurmat, vatanparvarlik va odamiylik fazilatlarini ruhida voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz - degan fikri, shuningdek, Fitratning (xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib, xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq), - degan fikrlariga davlatimiz rahbarining alohida urg'u berishi zimmamizda xalq manfaatlari, farzandlar kelajagi, ularning tarbiyasiga oid mas'uliyat nechog'li yuqori ekanidan dalolatdir.

Yoshlar harqanday jamiyatini bugungi va ertasi. Ular tom ma'noda bugungi qilinayptgan ishi ertangi kun uchun. Zero yangi O'zbekiston yoshlari-kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir. Bugungi kunda yurtimizda zamonaviy texnologiyalar yaratilayotgan sharoitlar barchasi yoshlarni ilm olishi uchun.

Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda barcha iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohasida ko‘plab tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi davlatimiz rahbari tomonidan rahbarligining ilk yillaridanoq chizilgan yo‘l xaritasi "2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi"da ilgari surilgan g‘oyalar asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiy tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intelektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab borish yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish , zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan, jahon standartlariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, hududlarda yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab quvvatlash, hududlarni sifatli , yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlar bilan ta’minlash maqsadida ilm-fan ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish yoshlarning ilmiy-texnik, ilmiy-innovatsion hamda turli loyihalarni moliyalashtirish, amaliyotga joriy qilish va tijoratlashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.



Bu borada Xalqaro Unversiteti ham iqtidorli talaba yoshlarni ilim-fanga keng jalb qilish OTM dagi barcha sharoitdan to'liq foydalanishlari uchun alohida o'qituvchilar tomonidan talabalar bilan ishlab kelinmoqda.



Bu jarayonda ilm-fan va ilmiy innovation faoliyatga yoshlarni qiziqtrishva keng jalb qilish boycha takliflar ishlab chiqish jarayonida adabiyotlarni o'rganish, kuzatish, kitob mutol qilish, anketalar va ilg'or tajribalarni o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani xususan Prezident va ijod maktablari tashkil etilayotgani zamirida katta ma'no mujassam. Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan , barcha shart-sharoitlarga ega o'quv binolarida ta'lim olayotgan yoshlarning yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlana olamiz.



Birgina misol Azizbekning muvaffaqiyati qadami har bir O'zbekistonlik yosh uchun katta motivatsiya bo'ldi deb hisoblayman. Azizbek 4 yil ta'lim olish uchun Garvarddan jami 360ming dollar grand sohibiga aylangani ham davlatimiz rahbari boshchiligida qisqa vaqt ilm-fan sohasidagi tanlangan yo'limizning naqadar to'g'ri ekanligini yaqqol isbotlab turibdi.

Bugungi kunda yoshlarga ilm-fanga , ilmiy-innovatsion faoliyatga jalb qilishning prinsipial yangi usullarini ishlab chiqish va joriy etish muommasi dolzarbdir. Shu munosabat bilan mamlakatning innovatsion rivojlanishining eng muhim yo‘nalishi yoshlarning avvalombor talabalarining innovatsion ijodiy faolligini rag‘batlantirish va uning salohiyatini ijodiy va ilmiy rivojlantirish , ularning biznes g‘oyalarini tijoratlashtirish uchun juda ko‘p turli xil imkoniyatlar yaratish darkor.

Ilm-fan rivoji - mahsulotlarning raqobatbardoshligini va mamlakatning jahon bozorida obro‘sin ta‘minlashning asosiy omilidir. Shuning uchun dunyoning yetakchi davlatlari tadqiqot ishlariga katta e‘tibor berishadi, bunga katta mablag‘ sarflaydilar. Tajriba va ilmiy-tadqiqot ishlarini boshlash hech qachon kech emas, lekin eng yaxshisi bu boshlang‘ich maktablar o‘quvchilarida ilm-fan, innovatsion faoliyat haqida ta‘surat uyg‘otish va motivatsiya berishdan boshlash zarur.

Yoshlarni ilm-fanga va ilmiy-innovatsion faoliyatga jalb qilish bo‘yicha iqtidorli innovator yoshlarni O‘rta maktablar, mahalla yoshlari va OTM talabalariga biriktirish, ularni uzviy bog‘lovchi **"UCHLIK ZANJIRI"** hosil qilinsa yoshlar orasida ilm-fan, ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi qatlam soni ko‘payadi, yoshlarning ishsizlik muommasiga qisman barham beriladi va ularning startab loyihalar, ratsionalizatorlik takliflari ortib mamlakatimizning import hajmi qisqaradi.

Zamonaviy maktabgacha ta‘lim bolaning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘zini-o‘zi anglashi ta‘minlashga tayanadi, bilimga bo‘lgan ichki ehtiyojni uyg‘otish, yog‘nitiv qiziqishni faollashtirish muhimdir. Bolalar eksperimenti - bu atrofdagi dunyo hodisalarining qonuniyatlarini anglash, ufqlarni kengaytirish, mustaqil faoliyat tajribasini boyitishning eng samarali vositasi. Tajribalar nafaqat yangi faktlarni keltirib chiqaradi, balki sintez va tahlilning aqliy operatsiyalarini shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ijodiy salohiyatni ochib berishga, birlamchi matematik tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Prezidentimiz yoshlarni ilmiy va har sohada ilg'or bo'lishi uchun juda katta shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Kuni kecha 14 fevral kuni yig'ilishida



Przeident yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning yangi choralarini ma’lum qildi.

Yoshlar sanoat zonalarida bino oladigan yosh tadbirkorlarga uskunalar sotib olish uchun 500 ming dollargacha imtiyozli kredit ajratiladi. Mamlakat hududlarida ijodiy sanoat parklari paydo bo‘ladi. " Bir million dasturchi " loyihasiga qo‘shimcha 300 ming yosh jalb etildi.

Yig‘ilishda davlat rahbari O‘zbekistonda yoshlar biznesini qo‘llab-quvvatlash uchun 400 million dollar ajratilishini ham ma’lum qildi. O‘MB bitiruvchilarining tashabbus va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun yangi xizmatlar paketini joriy qiladi. "Aloqa bank" startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun "yoshlar banki"ga aylantiriladi.

O‘tgan yili 25 ming nafar qiz axborot texnologiyalari sohasida bepul ta’lim oldi. Joriy yilda dasturchi ayollar sonini ikki barobar oshirish rejalashtirilgan.

Iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish , mamlakat ilm-fanining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlash , mavjud ilmiy maktablar salohiyatini yanada mustahkamlash hamda ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish maqsadida 2019-yilning 30-avgust sanasida "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida "gi PQ-4433 son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi , Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining:

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasini yuridik shaxs maqomisiz tashkil etish,

Yoshlar akademiyasiga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirining birinchi o‘rinbosariga yuklash,

Yoshlar akademiyasiga o‘zlarining innovatsion loyihalari va g‘oyalariga ega iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshgacha bo‘lgan olimlar va tadbirkorlardan tashkil topgan jamoalarni tanlov asosida qabul qilish to‘g‘risidagi muhim vazifalar belgilab berildi. Ushbu jarayonlar zamonaviy sharoitlar yaratish asosida yoshlarni noan‘anaviy usullar bilan ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqishini yanada oshiradi.

MUHOKAMA

Ma‘lumki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5544 sonli "2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlanish strategiya to‘g‘risida"gi Farmonida asosiy vazifalardan biri etib 2030-yilga qadar Respublikamizni Global innovatsion indeks baholash reytingida yetakchi 50 ta davlatlar qatoriga kiritilishi belgilangan.

Shu bilan birga, yosh iqtidor sohiblarini innovatsion tadbirkorlik sohasiga tizimli jalb qilish, iqtidorli yoshlarni ishbilarmonlar va yetakchi olimlar bilan hamkorlikda ish yuritishi uchun yagona tizim yaratish va shu asosda ilm-fan sohasida yosh kadrlar yetishtirish tizimining uzviyligini ta‘minlash,

Ishlab chiqarish sohasiga yuqori texnologiyalarni tatbiq etish va ilmiy tadqiqotlarga yoshlarni jalb etish talab etilmoqda. Bularning bari yoshlarni noan‘anaviy usullari orqali ilm-fan va innovatsiyalarga kengroq jalb etishning mexanizmi bo‘lib, xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bir necha o‘nlab yangi oliy ta‘lim muassasalari tashkil etildi. Shuningdek 2020-2021 o‘quv yilidan yana bir yangi tizim joriy etildi: kam ta‘minlangan oilalarda ulg‘ayotgan qizlarimizning bilim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida Oliy ta‘lim dargohlarida ular uchun davlat granti asosida 940 ta qo‘shimcha o‘rin ajratildi. Joriy o‘quv yilida esa bu raqamlar 2 barobar oshishi kutilmoqda. Bu o‘zgarishlar iste‘dodlarning intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun muhim poydevordir!

Milliy taraqqiyotimizning yangi davrida xalqimizda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ayniqsa, yoshlarni milliy yuksalish g‘oyasi atrofida birlashtirish, ularni ilm-fan yutuqlari hamda raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish orqali kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda dastur-ul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Haqiqatan ham, uzoqni ko‘zlagan har qanday rejaning asosini sifatli ta‘lim tashkil etadi. Ko‘hna Xitoy tafakkuri Konfutsiy "Agar rejangiz bir yillik bo‘lsa, sholi eking, o‘n yillik bo‘lsa, daraxt eking, yuz yillik bo‘lsa - bolalaringizga ta‘lim bering", deya bejiz ta‘kidlanmagan. Kelajakda kutilgan" hosil"ni yig‘ish uchun O‘zbekistonda hozirdan keng imkoniyatlar yaratilyapti, yoshlarni ilm-u

ma’rifatga rag’batlantirish, ilm egalarini qadrlashga qaratilgan tizim shakllantirilyapti.

O‘z navbatida, yoshlar ham shaxsiy rivojlantirishi uchun motivatsiya manbalarini o‘zlari topa bilishi kerak - u kitob yoki kinoasar, sport va sayohat bo‘lsin. Imkoniyat yaratilsa o‘qiyman, deydigan emas, har qanday vaziyatda ham bila olish va rivojlantirishga harakat qilaman deydigan yigit-qizlarimiz safi kengayishi uchun butun bir boshli millat mas’ul bo‘lishi lozim.

Xulosa: Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlikning ulug‘vorligiga hech narsa teng kela olmaydi. Yosh bo‘lish bu o‘z-o‘zidan har qanday qudratli shaxsdan ko‘ra ko‘proq qiymatga ega bo‘lgan cheksiz xazinaga ega bo‘lish demakdir. Har bir xalqning eng buyuk kuchi bu - uning yoshlardir. Shu sababli ham, yurtimiz ertasi yoshlarimiz qo‘lida ekanini his qilgan holda hukumatimiz va prezidentimiz tomonidan yoshlarimiz uchun kerakli zarur shart-sharoitlar yaratib berib kelmoqda. Bunga javoban biz yoshlar labbay deya olishimiz va kelajakda har bir sohada yuqori natijalarga erishib yurtimiz nomini dunyoga mashhur qilishimiz lozim. Chunki, butun yurtimiz aholisi yoshlarga ishonch bildirib yaxshi niyat ila yanada kuchli demokratik davlat va jamiyat qurilishda ularni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Buyuk Imom Buxoriy hazratlarining " Al jome as-sahih" asarida ham hamma narsani yaxshi niyat bilan boshlashga oid hadis berilgan edi : " barcha ezgu amallar niyatga bog‘liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi ".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 14-fevral kunidagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning yangi choralari haqidagi nutqidan.
2. <https://youtube.com/shorts>
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasini Prezident farmoni.
<https://www.lex.uz/rus/dosc/-4545884>
4. Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. <https://lex.uz/docs/-4571490>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4433-sonli qarori.